

O‘zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasini targ‘ib qilish boy‘icha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida MA’LUMOT



2023-yil 5-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasi bilan hamkorlikda 8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, shuningdek, 10 – dekabr – Davlat madhiyasi qabul qilinganligining 31-yilligiga bag‘ishlab, Vazirlik markaziy apparati rahbar –xodimlari ishtirokida davra suhbatı o‘tkazildi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi E.Zaxidov, O‘zLiDeP Toshkent shahar kengshi raisi R.Fozilov, O‘zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi Siyosiy ta’lim markazi rahbari Nasimjon Alimovlar o‘zlarining qiziqarli ma’ruzalari bilan ishtirok etishdi.



2023-yil 2-dekabr kuni

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida Toshkent davlat yuridik universitetining malakali professor-o'qituvchilari boshchiligidagi iqtidorli talabalardan iborat "Targ'ibot poyezdi" loyihasi a'zolari ishtirokida "Konstitutsiya – xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!" shiori ostida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbrida Bosh qomusimizning ijtimoiy hayotimizda tutgan o'rni, uning naqadar salmoqli, muhim siyosiy va tarixiy hujjat ekani haqida tushunchalar berildi.



2023-yil 4-dekabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tyutorlari va talabachilari Toshkent davlat yuridik universitetining katta tadbirlar zalida o'tkazilgan "Yoshlar huquqlarini kafolatlash yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining ustuvor yonalishi" mavzusida Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan yoshlar konferensiyasida ishtirok etishdi.



2023-yil 5-dekabr kuni "Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi" davlat muassasasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayrami munosabati bilan "Mening Konstitutsiyam 31 yoshda" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkillashtirildi.

Ushbu tadbirda, O'zbekistonda yuridik sohaga o'zining ulkan hissasini qo'shib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti Otaxonov Foziljon ishtirok etdi. Tadbir davomida Markaz xodimlari Konstitutsiyadagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ldilar.



2023-yil 5-dekabr kuni “Elektromagnit moslashuv markazi” davlat unitar korxonasi markaziy apparati bo‘lim va xizmatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar Elektromagnit moslashuv xizmatlari xodimlari uchun “ZOOM” ilovasi orqali O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31 yilligiga bag‘ishlangan “Konstitutsiya – xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!” deb nomlangan ma’naviy-ma’rifiy davra suhbatini o‘tkazildi.



Mazkur davra suhbatida Toshkent davlat yuridik universiteti Mehnat huquqi kafedrasini o‘qituvchisi Yusupov Nodir Abduljalilovich o‘z nutqi bilan ishtirok etdi.



Tadbirida yangilangan Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyati va “O‘zbekiston-2030” strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlari doirasida belgilangan tub islohotlar haqida so‘z yuritildi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, Advokatlar palatasi, shuningdek, “yurisprudensiya” ta’lim yo‘nalishi mavjud bo‘lgan oliy ta’lim muassasalari xodimlari ishtirokida “Zakovat” intellektual turniri tashkil etildi. Ushbu “Zakovat” intellektual turnirida 80 nafarga yaqin yaqin talaba ishtirok etdi.



2023-yil 5-dekabr kuni Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida “Konstitutsiya — xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!” shiori ostida Toshkent davlat yuridik universitetining malakali professor-o‘qituvchisi boshchiligida Bosh qomusimizning ijtimoiy hayotimizda tutgan o‘rni, uning naqadar salmoqli, muhim siyosiy va tarixiy hujjat ekani haqida tushunchalar berildi

Shuningdek, uchrashuvda Toshkent davlat yuridik universitetidan tashrif buyurgan kafedra dotsenti bilan talabalar mavzuga doir savol-javob o‘tkazdilar.

Vazirlik tizimidagi oliy ta'lim muassasalarida talabalarni qamrab olgan holda Konstitutsiya darslari o'tkazildi

27-noyabr – 2-dekabr kunlari Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida “O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi mazmun-mohiyatini o‘rganish” maxsus kursi dasturi bo‘yicha talabalar uchun **Konstitutsiya darslari o‘tkazildi**. Talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollariga javob olish imkoniyatlariga ega bo‘lishdi.



Konstitutsiyaga bag'ishlangan tadbirlar keng targ'ib qilindi

<https://digital.uz/news/view/4059>

<https://t.me/mitcuz/12259>

<https://t.me/c/1869951678/234>

<https://t.me/c/1869951678/181>



<https://t.me/cemcuz/1728?single>


<https://rtmc.uz/news/mening-konstitutsiyam-31-yoshda-1>



<https://t.me/yangilikrtmc/940>



<https://e-gov.uz/news/bu-mening-konstitutsiyam-1156>



<https://tuit.uz/post/uzbekistan-mavzusida-insholar-otkazildi>

<https://t.me/eGovUz/3272>

<https://t.me/c/1869951678/208>

<https://t.me/c/1869951678/193>

<https://derc.uz/uz/news/ozbekiston-respublikasi-konstitutsiyasi-kuni-bayrami-munosabati-tadbir-tashkil-etildi-359>



<https://ict.xabar.uz/uz/1uv>

<https://t.me/xabaruzofficial/83989>



Mana shu ko'rinishdagi banner tayyorlanib, Vazirlik hamda uning tizimidagi barcha korxon va tashkilotlarning rasmiy-veb-saytlariga joylashtirildi.